

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**  
**8-sinf**  
**1-variant**

1-20 matematika, 21-35 ona tili va adabiyoti, 36-45 kimyo  
(B-bilish; Q-ko‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi (F.I.SH).....

1. (**B 1 ball**)  $a = 2$  va  $b = -2$  da algebraik ifodalarning qiymatlarini toping va mos to‘g‘ri javoblarni mos keltiring.

I. $3a - 2b$	A. 0
II. $2a + 3b$	B. 16
III. $(-a - b)^2$	C. 10
	D. -2

- A) I-D, II-A, III-B    B) I-C, II-D, III-A  
C) I-D, II-A, III-C    D) I-C, II-D, III-B

2. (**B 1 ball**) Amalni bajaring:

$$\frac{1}{cd} + \frac{1}{bd}$$

A)  $\frac{b+c}{cbd^2}$     B)  $\frac{2}{cbd}$     C)  $\frac{b+c}{d}$     D)  $\frac{b+c}{cbd}$

3. (**B 1 ball**)  $y = \frac{k}{x}$ ,  $k \neq 0$  funksiya va grafigi uchun quyidagi tasdiqlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Nº	Tasdiqlar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	Funksiya $k > 0$ va $x > 0$ da kamayuvchi bo‘ladi		
2	Funksiya $k < 0$ va $x < 0$ da kamayuvchi bo‘ladi		
3	Funksiya noldan boshqa barcha haqiqiy qiymatlarni qabul qiladi		

- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri;    B) to‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri;  
C) noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri;    D) noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri;

**4. (Q 4 ball)** Kattasi  $2p + 10$  ga teng bo‘lgan uchta ketma-ket kelgan juft natural sonlar yig‘indisini toping.

- A)  $6p + 12$       B)  $6p + 24$       C)  $6p + 36$       D)  $6p + 18$

**5. (Q 4 ball)** Kasrni qisqartiring:

$$\frac{9y^2 - 6y + 1}{9y^2 - 1}$$

- A)  $\frac{1}{3y+1}$       B)  $\frac{3y+1}{3y-1}$       C)  $\frac{3y-1}{3y+1}$       D)  $-6y$

**6. (Q 4 ball)** Quyidagi kasrlar uchun umumiy maxrajni toping:

$$\frac{1}{3b^2}; \frac{a^2 + b^2}{5a^4b^3}; \frac{3 - a^2}{6ab^2}$$

- A)  $30a^4b^3$     B)  $15a^4b^3$     C)  $18a^4b^3$     D)  $30a^2b^2$

**7. (Q 4 ball)** Algebraik kasrlarni qo‘sning:

$$2c - 1 - \frac{4c^2}{2c - 1}$$

- A)  $\frac{-4c+1}{2c-1}$     B)  $\frac{4c+1}{2c-1}$     C)  $\frac{-4c}{2c-1}$     D)  $\frac{-1}{2c-1}$

**8. (Q 4 ball)** Amallarni bajaring:

$$\frac{42xy}{27y^2} \cdot \frac{15x^2y^3}{28x^4y}$$

- A)  $\frac{6y}{5x}$     B)  $\frac{6x}{5y}$     C)  $\frac{5y}{6x}$     D)  $\frac{5x}{6y}$

**9. (Q 4 ball)** Amallarni bajaring:

$$\frac{a^2 - 16}{a^2 + 5a} \cdot \frac{a + 4}{25 - a^2}$$

- A)  $\frac{(a-5)(a-4)}{a}$     B)  $-\frac{(a-5)(a-4)}{a}$     C)  $-\frac{(a+5)(a-4)}{a}$     D)  $\frac{(a-5)(a+4)}{a}$

**10. (Q 4 ball)** Amallarni bajaring:

$$\left( \frac{a-b}{a+b} - 2 \right) : \left( \frac{2b}{a+b} - 1 \right)$$

- A)  $\frac{a-b}{a+3b}$     B)  $\frac{a+3b}{a+b}$     C)  $\frac{a+b}{a+3b}$     D)  $\frac{a+3b}{a-b}$

**11. (Q 4 ball)** Hovuz birinchi quvur orqali  $a$  soatda, ikkinchisi orqali  $b$  soatda to‘ladi.

Agar ikkala quvur bir vaqtida ochib qo‘yilsa, hovuz  $\frac{3}{5}$  qismi necha soatda to‘ladi?

- A)  $\frac{3(a+b)}{5ab}$     B)  $\frac{5ab}{3(a+b)}$     C)  $\frac{3ab}{5(a+b)}$     D)  $\frac{5(a+b)}{3ab}$

**12. (M 5 ball)**  $y = \frac{4}{x}$  funksiya grafigidan  $y = \frac{4}{x+5} + 2$  funksiya grafigini hosil qilish

uchun quyidagi harakatlardan qaysi birini amalga oshirish kerak?

- A)  $Ox$  o‘q bo‘ylab chapga 5 birlik va  $Oy$  o‘q bo‘ylab 2 birlik yuqoriga surish  
 B)  $Ox$  o‘q bo‘ylab chapga 5 birlik va  $Oy$  o‘q bo‘ylab 2 birlik pastga surish  
 C)  $Ox$  o‘q bo‘ylab o‘ngga 5 birlik va  $Oy$  o‘q bo‘ylab 2 birlik yuqoriga surish  
 D)  $Ox$  o‘q bo‘ylab o‘ngga 5 birlik va  $Oy$  o‘q bo‘ylab 2 birlik pastga surish

**13. (B 4 ball)** Parallelogrammning ikki tomoni nisbati 6:5 ga, perimetri esa 110 cm ga teng. Parallelogrammning katta tomoni uzunligini toping.

- A) 50 cm B) 25 cm C) 60 cm D) 30 cm

**14. (B 4 ball)** To‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari 36 cm va 40 cm ga teng. Perimetri shu to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetriga teng bo‘lgan kvadratning tomoni uzunligini toping.

- A) 38 cm B) 36 cm C) 40 cm D) 32 cm

**15. (Q 5,2 ball)** Muntazam o‘n ikkiburchak uchun quyidagi tasdiqlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Nº	Tasdiqlar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	Ichki burchaklari yig‘indisi $1800^\circ$ ga teng		
2	Har bir tashqi burchagi $60^\circ$ ga teng		
3	Bir uchidan chiquvchi diagonallari soni 10 ga teng		


- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri; B) to‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri;  
C) noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri; D) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri;

**16. (Q 5,2 ball)** Burchaklaridan biri  $120^\circ$ , kichik diagonali uzunligi 16 cm ga teng bo‘lgan rombning perimetrini toping.

- A) 64 cm B) 144 cm C) 36 cm D) 72 cm


**17. (Q 5,2 ball)** Trapetsiyaning asoslari 8 cm va 14 cm, yon tomonlari esa 7 cm va 9 cm. Kichik asosining uchidan kichik yon tomoniga parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazilgan. Shu parallel to‘g‘ri chiziq ajratgan uchburchakning perimetrini toping.  
A) 18 cm B) 24 cm C) 22 cm D) 20 cm

**18. (Q 5,2 ball)**  $OA = AA_1 = A_1A_2 = A_2A_3 = A_3A_4$  va  $AB \parallel A_1B_1 \parallel A_2B_2 \parallel A_3B_3 \parallel A_4B_4$  (rasmga qarang). Agar  $OB_3 - B_1B_2 = 27$  cm bo‘lsa,  $OB_2 + B_3B_4$  ifoda qiyamatini toping.



- A) 48 B) 36 C) 28 D) 32

**19. (Q 5,2 ball)** Rasmda tasvirlangan trapetsiya uchun  $x + y + z$  ifodaning qiymatini toping.



- A) 18      B) 20      C) 24      D) 22

**20. (M 6 ball)** Teng yonli trapetsiyaning kichik asosi 10 cm va perimetri 44 cm. Agar trapetsiyaning diagonali uning o'tkir burchagini teng ikkiga bo'lsa, trapetsiyaning o'rta chizig'i uzunligini toping.

- A) 14 cm    B) 16 cm    C) 12 cm    D) 13 cm

**21. (B – 2)** Bu uslubda gaplar ixcham va aniq, mazmunli quriladi. Ko'pincha, gaplar egasiz, kesimlari esa majhul nisbatda bo'ladi.

Ushbu ma'lumotlar adabiy nutqning qaysi uslubiga xos?

- |                          |                     |
|--------------------------|---------------------|
| A) rasmiy-idoraviy uslub | B) so'zlashuv uslub |
| C) publitsistik uslub    | D) ilmiy uslub      |

**22. (Q – 2,8)** Muvofiqlashtiring.

1) ot	a) manavi
2) sifat	b) xayrli
3) son	c) qish
4) olmosh	d) mardona
5) ravish	e) bugun
6) fe'l	f) qizigan
	i) kabi
	j) nim chorak

- A) 1 – i; 2 – b; 3 – d; 4 – a; 5 – j, e; 6 – f  
 B) 1 – c; 2 – b; 3 – J; 4 – a; 5 – d, e; 6 – f  
 C) 1 – d; 2 – b; 3 – J; 4 – i; 5 – d, e; 6 – f  
 D) 1 – f; 2 – b; 3 – J; 4 – a; 5 – d, e; 6 – c

**23. (Q – 2,8)** Berilgan birliklar orasidan yordamchi so'zlarga oidlarini aniqlang.

- 1) mabodo; 2) endi; 3) hamda; 4) lekin; 5) garchi

- A) 1, 3, 4, 5      B) 2, 3, 4, 5  
 C) 1, 2, 3      D) 3, 4, 5

**24. (Q – 2,8)** Taqlid so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Tashqaridan qurs-gurs qadam tashlab Aliyev kirib keldi.  
 B) Yo'lechi ikki tabaqali darvozani shiddat bilan taqillata ketdi.  
 C) Shildirab oqib yotgan ariq yonida dong qotib uxbab qolibman.  
 D) Birdaniga yomg'ir sharros quyib yubordi.

**25. (B – 2)** Unda adabiyot darslarida o‘tilgan ma’lumotlarga o‘quvchining ijodiy munosabat qo’shib ifodalanadi.

Ushbu ma'lumotlar inshoning qaysi turiga xosligini aniqlang.



**26. (Q – 2,8) Tarkibida teng bog‘lanishli so‘zlar mayjud bo‘lgan gapni aniqlang.**

- A) Haqiqat achchiq, mevasi shirin.      B) Paxta va tilladan yurt bezanadi.  
C) Boshingga qilich kelsa ham rost gapir. D) Yaltiragan narsaning hammasi ham oltin  
emasa.

**27. (Q – 2,8)** Berilgan parchadagi so‘z birikmalarini aniqlang.

Mening avtadigan gapim ham shu edi, aslida.

- A) shu edi, aslida; aytadigan gapim  
B) mening gapim, aytadigan gapim  
C) aytadigan gapim, gapim shu edi  
D) mening aytadigan, gapim ham shu edi

**28. (B – 2)** Berilgan birliklар орасыдан қо‘шма со‘зларни аиратинг.

- 1) rad etmoq; 2) kashf qilmoq; 3) yugurib kelmoq; 4) Oliy Majlis; 5) samimiy kulmoq.  
A) 3, 4, 5      B) 2, 3, 4      C) 1, 3, 5      D) 1, 2, 4

**29. (Q – 2,8)** Buvraxon Xolbeka va Kuntug‘ mishni tuyaning terisi ichiga joylab, otning dumiga bog‘lab, otni cho‘l-jaziraga haydab yuborgandan keyingi voqea keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Azbarxo‘jani uchratib, u bilan “Our’on”ni o‘rtaga qo‘vib do‘st tutinadi.

B) Kuntug‘mish Xolbeka va egiz farzandlaridan ayrılib, devonalar kabi cho‘l-ubiyobonlarda sargardonlikda kezib yuradi.

C) Xolbeka bilan Kuntug‘mishning mashaqqatlarga bardoshi yetmay Buvraxonning huzuriga qaytishadi.

D) Cho'lga haydalgan otning dumi uzilib tushgach oshiqlar joylangan tulupni quzg'un cho'qib teshadi.

30. (Q – 2,8) “Kuntug“mish” dostonidagi qahramonlar va ularning ta’rifini moslashtiring.

1. Xolmo‘min	O‘z jiyanlarini uyiga xizmatkorlikka olib kelib, ularga zolimlik qiladi.
2. Azbarxo‘ja	Bu xudbin karvonboshi non va suv so‘rab kelgan Kuntug‘mishni quduqqa tashlab yuboradi. Xolbekani hiyla bilan olib ketib Buvraxonga topshiradi va mukofotlanadi.
3. Mohiboy	Olim sayyod tomonidan boqib olingan bu bola juda tezzabon, bosiqqlikdan yiroq yigit edi.

- A) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-to'g'ri.      B) 1-to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-noto'g'ri.  
C) 1-noto'g'ri, 2-noto'g'ri 3-to'g'ri.      D) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri.

**31. (B – 2)** Lutfiy ijodiga tegishli ma'lumotlar berilgan qatorni aniqlang.

- 1) Bizgacha Lutfiy turkiy devonining 33 nusxasi yetib kelgan.
  - 2) Alisher Navoiy “Nasoyim ul muhabbat” tazkirasida Lutfiyning 99 yoshida vafot etgani haqida hamda qabri Dehikanorda ekanligi haqida aytgan.
  - 3) Alisher Navoiy “Majolis un nafois” tazkirasida Lutfiyni zamonasining “malik ul-kalom”i edi deya ta’riflagan.

4) Lutfiy “Ayoqingga tushar har lahza gisu” g‘azalining har baytida talmeh san’atidan mahorat bilan foydalangan.

- A) 1, 2, 3      B) 2, 3, 4      C) 1, 2, 4      D) 1, 3, 4

**32. (Q – 2,8)** Ushbu bayt haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Ko‘zing qonimdin iymanmas, ajabtur, –

Ki: “Qo‘rqar, qaydakim qon ko‘rsa hindu”.

A) Hindu (ko‘zlarga ishora) qayda qon ko‘rsa, qo‘rqar, ne ajabki, sening ko‘zlarining oshiq qonidan iymanmayapti.

B) Hindu (ko‘zlarga ishora) qon ko‘rgan joyidan qochadi, sening ko‘zlarining esa boshqa ko‘zlarini asirga olishga shay, tayyor.

C) Hindu (ko‘zlarga ishora) qon ko‘rgan joyidan qochgani kabi mashuqaning ko‘zlarini ham mening ko‘zlarim bilan to‘qnashishdan qochmoqda.

D) Hindu qon ko‘rgan joyidan aylanib o‘tishga harakat qilgani kabi sening ko‘zlarining ham meni ko‘rib turib ko‘rmaslikka olishdan hech iymanmayapti.

**33. (Q – 2,8)** Tuyuq mazmuni to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.

Ko‘nglimga har yonki boqsam, dog‘i bor,

Har necha dardimni desam, dog‘i bor.

Qilcha tanga bori ishqing yor edi,

Bir sori bo‘ldi firoqing dog‘i bor.

A) Har qancha yozg‘irsam ham, dard cheksam ham ko‘nglimga qaramaydigan, dardimni tinglamaydigan ul malakning parvoyi falak.

B) Ko‘nglimga boqsam, otashi bor. Har qancha dardimni aytsam ham dog‘i (yana) bor.

Qildekkina tanamga ishqing yuki yor edi, bir tarafdan endi firoqning yana ortgani oshiqcha bo‘ldi.

C) Ko‘nglimga har tarafdan boqsam, dog‘i (yara) bor. Har qancha dardimni aytsam, yana bor. Qildekkina tanamga ishqing yuki yor edi, bir tarafdan endi firoqning otashi ham yuk bo‘ldi.

D) Qildek xasta tanamga ishqing yuki og‘irlik qilmoqda, yana vaslingdan yiroq etib ozor yetkazganing ortiqcha.

**34. (Q – 2,8)** Ushbu ruboiydan ajratib ko‘rsatilgan misra mazmuni to‘g‘ri keltirilgan qatorni aniqlang.

Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi,

Baxtim kibi, har ishta zabunluq qildi,

Gah kom sari rahnamunluq qildi,

Alqissa, base buqalamunluq qildi.

A) Hasbi hol tarzida yozilgan ushbu ruboiyda taqdir lirik qahramonga ba’zan jafo-yu pastliklar qilgani haqida aytilmoqda.

B) Hasbi hol tarzida yozilgan ushbu ruboiyda taqdir jabr-sitam ko‘rsatibgina qolmay, gohida maqsad sari yo‘l ham ko‘rsatganligi aytilmoqda.

C) Ushbu ruboiy hasbi hol tarzda yozilgan. Unda taqdirning shoirga nisbatan buqalamun kabi tusini o‘zgartirib, rang-baranglik qilgani, ya’ni goh jabr-u jafo o‘tkazib, goh siylagani haqida aytilmoqda

D) Ushbu ruboiy hasbi hol tarzda yozilgan. Unda taqdir lirik qahramonga xuddi baxti kabi shikast, xor-u zorlik yetkazgani haqida aytilmoqda.

**35. (M – 4)** Navoiy qalamiga mansub ushbu baytning nasriy bayoni to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

Deb edik ishq anduhidan har dam afg‘on qilmali,

Vahki, bu da’voda bizni sharmisor etti firoq.

A) O‘z tengimni sevmaganim uchun, yor menga nazari balandlik qilgani uchun el orasida sharmisor bo‘ldim.

B) Ishq g‘amida fig‘on chekyapman, chunki yor ozor-u sitamlaridan bezib, qozilarga da’vo qilgandim, yengilib, sharmisor bo‘ldim.


C) Yorimning hajridan, g‘am-u firog‘idan devona kabi bo‘ldim, shuning uchun el ichra sharmandaman.

D) Ishq g‘ussasidan har lahza faryod qilmaymiz deb aytgan edik, lekin e vohki, bu da’voda ham firoq bizni sharmanda qildi, ya’ni gapimizda turolmadik.

**36. (B - 2,5)** 24 gramm magniyda qancha atom bo‘ladi?

A.  $0,602 \cdot 10^{23}$       B.  $24,30 \cdot 10^{23}$       C.  $6,02 \cdot 10^{23}$       D.  $0,243 \cdot 10^{23}$

**37. (B)** X atomning zarrachalarini aniqlang.



1 Neytron      a 16

2 Proton      b 8

3 Elektron      c 15

d 10

- A. 1-b, 2-b, 3-b    B. 1-a, 2-a, 3-a    C. 1-c, 2-c, 3-a    D. 1-b, 2-c, 3-b

**38. (B - 2,5)** Kalsiyning nechta elektronlar bilan to‘lgan qavati mavjud?




- A. 1      B. 4      C. 3      D. 2

**39. (Q - 4,5)** Elementlarni massa ulushlariga asoslanib kislotaning eng oddiy formulasini aniqlang.



- A.  $\text{H}_2\text{SO}_4$       B.  $\text{H}_2\text{S}$       C.  $\text{SO}_3$       D.  $\text{H}_2\text{SO}_3$

**40. (Q - 4,5)** Almashinish reaksiyasini aniqlang.



**41. (Q-4,5 )** Berilgan oksidlarni (a-d) universal indikator rangiga (1-3)

moslashtiring.

1-qizil	2-sariq	3-to‘q kók
---------	---------	------------

- a) oltingururt (IV) oksidi    b) litiy oksidi    c) vodorod oksidi    d)uglerod (IV) oksidi

- A. 1-d      2- c      3- b      B. 1-c      2- a      3- b

C. 1-a      2- b      3- d

D. 1-b      2- c      3- d

**42. (Q - 4,5)** Kimyoviy elementning davriy sistemadagi o‘rni bilan uning atomidagi elektron va neytronlar soni o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.

1) 4-davr, VI (b) gruppasi	a. 16, 16
2) 2-davr, VII gruppasi	b. 9, 10
3) 3-davr, VI gruppasi	c. 18, 22
4) 3-davr, VIII gruppasi	d. 24, 28

A) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a    B) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c    C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c    D) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

**43. (Q - 4,5)**  $1s^2 2s^2 2p^6$  elektron formulasiga qaysi element atomi yoki ioni muvofiq keladi?

- A.  $Na, Al^{+3}, Ca^{2+}$     B.  $Na^+, Ne, O^{2-}$     C.  $Na^+, Ca^{2+}, Ne$     D.  $Na, Cl^-, Ca^{2+}$


**44. (Q - 4,5)** Jadvalda beshta atomning tuzilishi ko‘rsatilgan.

Atom	neytronlar soni	protonlar soni
V	5	5
W	6	5
X	6	6
Y	7	7
Z	8	6

Qaysi ikki juft atom izotop hisoblanadi?

- A. V va W, X va Y    B. V va W, X va Z    C. W va X, Y va Z    D. W va Y, X va Z

**45. (M - 5,5)** No’malum X va Y atomlarini elektron, proton va neytronlarni aniqlang.



- A. X-19, 19, 20; Y- 18, 18, 20  
C. X-18, 18, 22; Y- 17, 17, 18

- B. X-18, 18, 20; Y- 17, 17, 18  
D. X-19, 19, 19; Y- 19, 19, 20

